


137. Tenglamalar

tenglama
noma'lum son




Tenglama bu — sonlardan biri noma'lum bo'lgan tenglik.
Noma'lum son harf bilan belgilanadi.



1. Nonushtaga birinchi sinflarning 78 nafar o'quvchisi bo'tqa tanladi. Ulardan 63 nafari guruch bo'tqasini tanladi. Necha nafar bola bug'doy bo'rtqasini yedi?

$$63 + \square = 78$$






2. Tengliklarda ko'rsatilgan komponentlarni lotin harflari bilan almashtiring. Nima hosil bo'lganini yozing.

$14 + 12 = 26$	$18 - 8 = 10$	$25 + 11 = 36$	$45 - 21 = 24$
1- qo'shiluvchi	ayriluvchi	2- qo'shiluvchi	kamayuvchi



3. Rasmga qarab tenglamalar tuzing. Noma'lum sonni harf bilan belgilang.





4. Bo'sh kataklarga tushirib qoldirilgan sonlarni yozing.

$41 + \square = 55$	$13 \text{ cm} + \square \text{ cm} = 54 \text{ cm}$
$84 - \square = 52$	$12 \text{ dm} + \square \text{ dm} = 42 \text{ dm}$
$\square + 18 = 29$	$28 \text{ l} - \square \text{ l} = 14 \text{ l}$
$\square - 12 = 10$	$\square \text{ kg} - 1 \text{ kg} = 94 \text{ kg}$



5. a) Maktab oshxonasiga 28 litr qatiq keltirildi. Agar bolalarga tushlikka 16 litr qatiq qolgan bo'lsa, nonushtada qanchasi ishlatilgan?



$$28 - x = 16$$

$$x =$$

b) Oshxonada 18 litr sharbat tayyorlandi. Agar olma sharbat 12 litrni tashkil qilsa, necha litr nok sharbati tayyorlangan?





6. Rasmga qarab tenglama tuzing va uni yeching.